NAZAR ESHONQUL ASARLARIDA AYOLLAR OBRAZINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Oripova Nurafshon Olimjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
tayanch doktoranti
nurafshonoripova@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada Nazar Eshonqulning asarlarida ayollar obrazining psixologik xususiyatlari haqida so‘z borib, asarlar tahlili asosida o‘zbek adabiyotida tasvirlangan ayol obrazidagi ayol kultisi, uning milliy-insoniy qadriyatlar bilan bog‘lanishi, uning xarakter xususiyatlari, jamiyatda tutgan o‘rni, ma’naviy-axloqiy olamini ko‘rsatish, o‘zini, o‘zligini namoyon etishi tavsiflangan.

[68] https://academics.uz/index.php/zfty/article/view/2425/3693
[69] https://journal.fledu.uz/uz/oquvchilarning-mustaqil-talimini-tashkil-etishda-elektron-talim-resurslaridan-foydalanish-metodikasi/

Kalit so‘zlar: farzandsizlik mavzusi, ayol obrazi, xarakter, motiv, milliylik, Nazar Eshonqul, hikoya, qissa.

Abstract: This article tells about the psychological features of the image of a woman in the works of Nazareth Eshankul, and on the basis of the analysis of the works you can see the cult of a woman in the image of a woman, her connection with national and human values, her characteristic features, her role in society, her spiritual and moral world "manifest yourself, manifest yourself.

Key words: theme of childlessness, image of a woman, character, motives, nationality, Nazar Eshonkul, story, story

Jahon adabiyotshunosligida ayol obrazini o‘rganish muammolari XX asrning 2-yarmidan boshlangan. Dunyo adabiyotining Jek London, Charlz Dikkens, Margaret Drebbl, Rashod Nuri Guntekin kabi yetuk namoyondalari yaratgan asarlarda ayol kulti va uning milliy-insoniy qadriyatlar bilan bog‘lanishi bu borada muhim omil sifatida xizmat qilib, ayol badiiy asarda tasvirlanayotgan obrazlarning juftligi sifatida yetakchi qahramonlardan biri maqomida o‘rganilishi, uning xarakter xususiyatlari, jamiyatda tutgan o‘rni, ma’naviy-axloqiy olamini ko‘rsatish, o‘zini, o‘zligini namoyon etishi tadqiqini asosiy masalalardan biri darajasiga ko‘tardi. Adabiyotshunoslikda badiiy asar tahliliga doir muammolarni psixoanalitik jihatdan o‘rganish va uni anglash zarurati gumanitar sohalarda ham jiddiy masalalarni kun tartibiga qo‘ymoqda. Ayniqsa, filologiya sohasida g‘oyaviy pishiq, mazmunan mukammal, sifat jihatidan o‘ta yangi ilmiy izlanishlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratildi. Epik turning qissa janriga xos adabiy va badiiy kanonlar, ularda tasvirlanayotgan ajib xilqat iztiroblari, uning serqatlam ruhiy dunyosini tadqiq etish bilan bog‘liq tadqiqotlar izchillik bilan davom ettirib kelinmoqda. Ayol psixologiyasini tahliliy o‘rganish insonning ma’naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhim. Adabiy jarayon doimo ijtimoiy muhit, adabiy-ma’naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Zero, bashariyatning ong-u tafakkuri, ruhiyatidagi yangilanishlar, asosan, adabiyot va san’atda o‘z aksini topadi. Bunda adabiyotshunoslik fani ham o‘z obyektiga yangi nigoh bilan qarash, ayol ruhiyatiga oid muammolarni chuqurroq anglash yo‘lidan bordi.

Dunyo adabiyotshunosligida qissachilikning zamonaviy nazariyasi uning oldingi davrlardagi tarixiy evolyusiyasini yangicha anglashga mo‘ljallangan. Nazar Eshonqul nasriy asarlarida ayolning ruhiy dramalarini to‘laqonli aks ettirishda jahon nasrining ilg‘or ijodiy tendensiyalariga xos jihatlar namoyon bo‘layotir. Adabiy jarayonda ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, uning sohir tuyg‘ulari, inja va murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy-psixologik, ramziy-majoziy obrazlilik ustunlik qilmoqda. Bunda eng muhim vazifa muayyan xilqat ruhiyati, tasvir va ifodaning yangicha talqini bilan bog‘liq. Ishda adabiyot taraqqiyotida ayolning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatish muhim muammo sifatida qo‘yildi. Darhaqiqat, ayol psixologiyasi muammosini o‘rganish muayyan davr prozasining badiiy poetik ko‘lamini belgilashda ham muhimdir.

Globallashuv muammolarining ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy o‘zgarishlari fonida zamonaviy milliy adabiyotlarda yaratilayotgan ayollar qismatida ham o‘z aks-sadosini topayotgani adabiyotshunoslikda bu obrazlarni yangicha tamoyillar asosida o‘rganishni dolzarb masalalardan biri qilib qo‘ymoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligida sho‘rolar davri adabiyotida ko‘proq ishchi kuchi, “baxtli turmush” egasi sifatida tasvirlangan ayollarning hozirgi davr romanlarida o‘ta murakkab qismat va ziddiyatli xarakterga ega, ba’zida esa turmush tashvishlari bois sargardon kezgan ojiza – fojiali obrazlarga aylanishining ijtimoiy asoslarini davrlar buxronlari qiyosida tadqiq etish ikki davr adabiyotining o‘ziga xosliklarini belgilash nuqtayi nazaridan muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa Nazar Eshonqul ijodida ayollar asosiy qahramonlarga aylanib, qismati, ruhiya ti, ma’naviyati, ijtimoiy hayotdagi o‘rni va mavqeyi bilan uyg‘unlikda tasvirlanib, hayot chorraxalarida sarson-sargardon kezayotgan qahramonlar timsolida namoyon bo‘layotgani ayol obrazining ruhiyati, ma’naviyati, inqirozi qay yo‘sinda ifodalangani, adiblar ijodida bu jarayon qanday kechayotganini o‘rganish hamda o‘zbek adabiyotidagi ayol obrazini jahon adabiyoti namunalari bilan qiyoslab tadqiq etish orqali mushtarak va farqli jihatlarni ko‘rsatish muammoning dolzarbligidan dalolat beradi.

Istiqlol davri o‘zbek adabiyotshunosligining xalqaro maydondagi o‘rni va milliy madaniy merosini tadqiq etish, qadriyatlarni anglash zarurati bugungi globallashuv jarayonida badiiy adabiyotning mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, badiiy asarlarning jahon adabiyoti rivojidagi munosib o‘rnini asoslash, keyingi davr adabiyotiga kuchli ta’sir o‘tkazgan ijodkorlar merosini o‘rganishni taqozo etmoqda. Bugungi madaniy-ma’rifiy sohalardagi islohotlar jarayoni o‘zbek adabiyotshunosligi oldiga ham qator yangi vazifalar qo‘ymoqda. “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovasion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”[70] . Bu jarayonda muayyan xalq badiiy tafakkuri mahsulining insoniyat ma’naviy olamini yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyati uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13 maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-son Farmoni, 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi PQ-1271 Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son qarori, 2019-yil 17-iyundagi PQ-4358-son “2019-2023-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Farmon va Qarorlari, O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” va BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlangan nutqlaridagi

[70] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi. – Toshkent: 2017.23-dekabr.

hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Shu kabi izlanishlardan biri Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Dilmurod Xoldorovning “Ijod mohiyati – uslub xosiyati” deya nomlangan qo‘llanmadir. Ushbu qo‘llanma 2017-yilda nashr etilgan bo‘lib, 3 ta bobdan iborat, unda qissa janri va uslubi xususidagi maqolalar, bugungi tanqidchilikdagi dolzarb muammolar, adabiy kuzatishlar, taqrizlar, tahlil va talqinlar jamlangan. Nazar Eshonqulning asarlariga xos bo‘lgan milliylikni saqlash, millatimizga xos bo‘lgan g‘urur va insoniylik tamoyillari qalamga olinganligi va bunda ayollar obrazining psixologik negizi muhim ekanligi ta’kidlanadi. adib asar voqeligida kuzatilganidek, bu xarakterga nisbatan ham kinoyaviy munosabatda bo‘ladi. Bu hol ibtidodagi ideal Momo Havo bilan badiiy reallikdagi personaj o‘rtasida keskin nomuvofiqlikni anglash orqali oydinlashadi.

Xulosa qilib aytganimizda Nazar Eshonqul ijodida yaratilgan ayollar obrazi g‘oyaviy pishiq, mazmunan mukammal hisoblanadi. Ularda tasvirlanayotgan ajib xilqat iztiroblari, uning serqatlam dunyosi kitobxonlarni o‘ziga tortadi. Albatta, ayol psixologiyasini tahliliy o‘rganish insonning ma’naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhim. Bunda adabiyotshunoslik fani ham o‘z obyektiga yangi nigoh bilan qarash, ayol ruhiyatiga oid muammolarni chuqurroq anglash yo‘lidan bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Quronov D Adabiyot nazariyasi asoslari. -Toshkent. 2018
2.Eshonqul N. Yalpiz hidi: Qissalar va hikoyalar. Toshkent: Sharq, 2008.
3.Hozirgi adabiy jarayon masalalari. -Toshkent. 2022